

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBIR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI  
III-BOSQICH TALABASI  
«MUSIQA TARIXI» FANIDAN**

**MAQOM ASOSLARI MAVZUSIDA**

# **KURS ISHI**

**MUSIQA TA'LIMI 5111100**



**Raxbar :**

**X.Botirova**

**Bajaruvchi:**

**Abdug'opporova Sh.**

**ANDIJON-2015**

**Mavzu: Maqom asoslari**

## **Reja**

**Kirish**

**Asosiy qism**

**1. Maqom va uning iboralari**

**2. O`n ikki maqom**

**3. Yunus Rajabiy ijodi**

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

**Ilova**

## Kirish

Musiqiy tarbiya insonni go`zallikka yetaklovchi bir vosita bo`lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-ahloqiy va siyosiy g`oyalarini umumlashtiradi.

Inson hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvida ham muhim o`rin o`ynaydi. Musiqa san'atining ahloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to`g`ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go`zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.

Musiqa go`zallikka intilish, estetik ehtiyoj tug`ma xislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olamni ta'sirida paydo bo`lgan. Tashqi olamni o`zgartirish bilan insonning o`zi ham o`zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma'naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma'naviy qobiliyati va avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib bordi.

Musiqa san'ati hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog`liqdir.

Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo`lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko`rsatishdir. Shu ma'noda uning o`rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o`rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo`lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.

Har bir san'at turi singari musiqa san'ati ham juda qadim zamonlarda, odamlar g`orlarda yashab, tosh qurollaridan foydalanib, hayvon terilarini yopinib yurgan o`tmish davrlarida paydo bo`lgan. U odamlarning ma'naviy dunyosi cheklangan, tili kambag`al, atrofdagi voqea - hodisalar haqidagi tasavvurlari juda

noaniq edi. Lekin shunga qaramay musiqiy asarlarni, garchi u asarlar "yovvoyi" holatda bo'lsa-da, ana shu qadimgi odamlar yaratgan.

San'atning deyarli hamma turlari minglab yillar ilgari vujudga kelgan. San'at qandaydir birgina yerdagina emas, balki bir yo'la bir necha qit'alarda, turli kengliklar, iqlim sharoitlarida paydo bo'ldi. Qoyalardagi juda qadimgi zamon tasvirlari Afrikada ham, Ispaniyada ham, Onega ko'li qirg'oqlarida ham, Xitoyda ham topildi. Qadimgi Yunonistonda "musiqa bilan davolash ilmi" keng taraqqiy etgan. Masalan: matematik va faylasuf Pifagor musiqani kishi ruhiga va tanasiga har tomonlama davo bo'ladigan vosita sifatida tavsiya etgan. Aytishlaricha, Iskanday Zulqarnayn ham ko'p ishlarni musiqa sadolari ostida bajargan.

O'zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek cholg'u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko'rsatadi.

Ko'hna Afrosiyobda olib borilgan qazilmalarda qo'lida surnay ushlagan haykalcha topilgan. Olimlar bu haykalchani eramizdan, ya'ni miloddan avval III-I asarlarda yaratilgan, deb tahmin qilmoqdalar. Ayritosh nomi bilan fanda mashhur bo'lgan nodir yodgorliklar, Sulton Uvays tog'ining janubiy tizmalari boshlanadigan tekislikdagi qadimiy To'proq qal'adan arfa chaluvchi ayol tasviri tushirilgan topilmalar olimlar fikricha III-IV asrlarga mansub ekan.

VIII-XII asarlarda Sharqshunoslik tarixida **"Sharq yoki musulmon Renessansi"** davri deb nom olgan davr Sharqda O'rta asrlardagi barcha taraqqiyotlarning eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Nasr ibn Muhammad al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar shu davrning ajoyib vakillari bo'lganlar. Al-Forobiyning musiqaga bag'ishlangan "Kitob ul-musiqiy al-Kabr" ("Musiqa haqida katta kitob") asarida yozilishicha musiqa haqidagi fan amaliy va nazariy sohalardan iborat.

Musiqa kishiga ilgari uncha ma'lum bo'lmagan ajoyib yuksak tuyg'ularni ochib beradi, u kishini o'zgartirib yuborishga, uning qalbini noziklashtirishga, ruhan boyitishga qodir. Shuning uchun ham musiqani inson tabiatidagi barcha

yaxshi hislatlarning ifodasi deb bekorga aytmaganlar. Musiqani sevgan kishi ruhan boyiydi, qalban noziklashadi, ma'naviyati yuksaladi.

Shu o'rinda o'zbek musiqasida o'z salmoqli o'rniga ega bo'lgan maqomning serjilo ohangi, uning kelib chiqish tarixi o'zining boy va mazmunli tarixiga ega desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

**Kurs ishining dolzarbligi:** maqomning bugungi kunimizda hayotimizga zamonviy musiqa o'z ta'sirini ko'rsatib o'rin egallab kelayotgan bir payitda o'zbek klassik musiqamiz bo'lmish mumtoz musiqalarimiz, o'z tarixiga ega maqomning salmoqli o'rnini yoritishdan iborat.

**Kurs ishining maqsadi:** maqom masalalariga doir katta kitobni bugungi kunda salmoqli o'rnini asosli yoritish.

**Kurs ishining ob'ekti:** maqom va uning asoslari, buyuk bastakor Yunus Rajabiy ijodi.

**Ishning nazariy-metodologik asoslari:** Prezident I.A.Karimov asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Davlat farmonlari, tadqiqot mavzusiga oid tadqiqotchi olimlar risola va qo'llanmalari hamda darsliklar tashkil etadi.

**Kurs ishining umumiy xajmi** kirish, asosiy qism uchta reja, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, har bir reja, asosli ravishda yoritilgan.

## 1. Maqom va uning iboralari

“Maqom” asli arabcha soʻz boʻlib, “oʻrin”, “joy”, “manzil” maʼnolarini anglatadi. Musiqa amaliyotida esa torli cholgʻuning tovush sadolantiriladigan joyi, yaʼni pardasini bildiradi (IX-X asrlar Forobiy davri). Keyinchalik esa biz bilgan kasbiy musiqamizning yirik namunasi mustaqil musiqiy janrni, yaʼni maqomlarni anglata boshlagan. Oʻzbekisonda maqomotning uch turi – Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari mavjud.

Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq. SHashmaqom Oʻn ikki maqom tizimining milliy (mahalliy) musiqiy makon shart-sharoitlarida rivojlantirilishi natijasida XVIII asr oʻrtalarida uzil-kesil shakllanganligi. Unda bastakorlik sanʼati anʼanalari ilmiy jihatdan muayyan tizimga solinib, tasnif etilganligi. SHashmaqom – olti mukammal parda va ularga mos kuy va ashulalar majmuasi ekanligi. Uning tarkibidagi maqomlarning har biri yirik shakldagi turkumli asarlardan iboratligi. Bu maqomlar ogʻzaki anʼana tarzida, yaʼni ustozdan shogirdga «ogʻzaki uslub» vositasida oʻtib, bizning davrga qadar etib kelgan. SHashmaqomyb ilk bor V.Uspenskiy besh chiziqli nota yozuviga olgan. 1959 y. OʻXMning 5-jildida YU.Rajabiy notalashtirgan SHashmaqom turkumi chop etilgan. 1966-75 yillar mobaynida SHashmaqomni alohida koʻrinishda chop etdi.

Maqomlarning bu boʻlimi «mushkilot» nomi bilan yuritiladi. Mavjud barcha olti maqomlarning cholgʻu qichslari bir xil nom bilan atalib kelinadi: Tasnif, Tarjeʼ, Gardun, Muxammas, Saqil deb nomlangan. Ularning har birining usul birligi mavjad. Maqomlarda nomdosh boʻlmagan cholgʻu qismlar ham mavjud: Navoda – Nagʻmai Oraz, Dugohda – Peshravi Dugoh va Samoi Dugoh, Segohda – Hafifi Segoh va h.k.

SHashmaqomning ashula boʻlimlari murakkab shakldagi shoʻʻbalardan tarkib topgan. Ashula boʻlimlarida tuzilishi jihatidan bir-biridan ajralib turuvchi ikki xil shoʻʻbalar guruhi mavjuddir. Ular oʻzining tarkibi bilan birinchi va ikkinchi guruh shoʻʻbalar deb yuritiladi. Bulardan birinchisiga Saraxbor, Talqin, Nasr kabi shoʻʻbalar va Ufar qismi kirishi. II guruh shoʻʻbalarlar Savt va

Mo'g'ulcha turkkumlari nomi bilan yuritiladi. I guruh sho''balarning murakkab shakliy tuzilmalarida taronalar o'rin olgan.

SHashmaqomlarning ikkinchi guruh sho''balari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularning SHashmaqom turkumida nisbatan kech shakllanganligi va ularda nazirago'ylik an'anasining o'ziga xos aks etishini ko'rish mumkin. Ular odatda Savt va Mo'g'ulcha nomli bilan yuritiladi. Ikkinchi guruh sho''balar aniq tarkibiy tuzulishga ega bo'lib ularning har birini tarkibida Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar nomli shoxobchalari o'rin olgan. Ushbu shoxobchalarning yuzaga kelishida asosiy sho''balarning kuy-ohanglari saqlanib, doira usullarining o'zgarib borgan.

Usullar maqomlarning tuzilish xarakterini belgilovchi omillardandir. Ularni ajrata olish, maqomlarni qiyofasini to'g'ri tushunishga imkon beradi. SHashmaqomning barcha tarkibiy qismlarining o'ziga xos usul majmui mavjud. Ular muayyan tartib asosida tarkib topgan. Har bir usulning o'z nomiga egadir. Masalan: Saraxbor, nasr, talqin, savt, gardun, talqin, qashqarcha, soqiynoma, ufar va h.k. Manbalarda ko'rsatilishicha, ilk usul insonning tomir urishidan olingan. Tomirni barmoq bilan ushlab ko'rilsa, uning go'yo "tan-tan"ga o'xshash bir tekis urayotgani bilinadi. Olimlar buni "Usuli zarbi qadim" (Qadimiy zarb usuli) deb ataganlar. Zarbi qadim "bak, bum" hozirgi musiqa amaliyotida Saraxbor nomi bilan mashhur. Uning murakkabroq shakllari  $2/4$ ,  $3/4$ ,  $4/4$ ,  $5/4$ ,  $6/4$ ,  $7/4$ ,  $8/4$ ,  $3/8$ ,  $6/8$  kabi takt-ritm o'lchovlarida bo'lgan deyish mumkin.

Xalqlarining kasbiy musiqa merosida mukammal janrlar odatda maqomot tizimiga kiradi. Ko'pchilik sharq xalqlarining o'z an'analari asosida shakllangan maqomlari mavjud va ular o'ziga xos nomlanib kelinadi. Arab maqamlarida Maqam, turklarda makam, uyg'urlarda muqom, turkmanlarda muqom, ozarbayjonlarda mug'om, eronda dastgoh, shuningdek, hindlarda raga va h.k.

Katta ashula o'zbek bastakorlik ijodiyotining noyob, benazir mahsullaridan biridir. U kasbiy, ustozona musiqiy merosimiz qatlamiga mansub bo'lib, asosan Farg'ona vodiysi – Toshkent mahalliy uslubining yorqin va benazir belgilarini

o'zida mujassam etgan. Asl katta ashula asosan ikki, ba'zida uch nafar xonandaning hamnafasligida, hech qanday cholg'u jo'rligisiz ijro etiladi.

Maqomda bo'lgani kabi katta ashulada ham hofizlikning ustoz-shogirdlik an'anasi etakchilik qiladi.

Ishoq Rajabovning ustozona musiqaning eng murakkab va mukammal timsoli bo'lgan maqomlar bobida teran va chin qomusiy bilimga egaekanligi mutaxassislar tomonidan shak-shubhasiz tan olingan. Masalan, bu borada ustozning 1963 yili nashr etilgan "Maqomlar masalasiga doir" nomli monografik tadqiqoti fikrimizning dalili bo'la oladi. Ushbu salobatli ilmiy asar mazmunida, jumladan, SHashmaqom majmuasi dastlab kasbiy (saroy) musiqasida keng o'rin tutganligi, O'n ikki maqom tizimining tabiiy rivoji o'laroq shakllanganligi hamda uning parda tuzuk, kuy-ohang, zarb-usul, avj-namud va boshqa shakliy tuzilish qonuniyatlari aynan ana shu yaxlit tizimning tarkibiy qismlari ekanligi uzil-kesil ravishda o'z echimiga kelgan.

SHuningdek, tadqiqotda maqomot tizimining o'zga shakllari bo'lgan Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent yo'llariga oid qimmatli fikr-mulohazalar bildirilib, ularning SHashmaqom bilan o'zaro bog'lanish munosabatlari xususida ham malakali ko'rsatmalar bayon etilgan.

**«An'anaviy musiqa» tushunchasi**-An'anaviy musiqa – o'zbek xalqining musiqa merosi bo'lib, o'z ichiga musiqa folklori va mumtoz musiqa namunalarini qamrab olgan. An'anaviy ijodiyot va ijrochilik namunalari og'zaki an'anada shakllanib, rivojlangan va shu an'anada o'zlashtirib kelingan.



## 2. O`n ikki maqom

O`n ikki maqom jam' (tovush qator)lar guruhidan ajralib chiqqan ma'lum lad uyushmalaridir. Ma'lumki, jamlar jinslardan hosil bo`ladi. XV asr musiqa nazariyasiga bag`ishlangan risolalarda jinslar ikki guruhga; kvarta diapazonidagi 4 pog`onali tovush qator (tetraxord)lar va ikkinchi guruhga kvinta diapazonidagi besh pog`onali tovushqator (pentaxord)lar kiradi. Jinslarning bu ikki guruhi O`rta asr musiqasining lad uyushmalarini tashkil etuvchi tarkibiy qismlardir.

Musiqa amaliyotida qo`llaniladigan jam'lar, asosan, maqom, sho`ba, ovoz nomlari bilan mashxur bo`lgan. Xullas, maqomning dastlabki tushunchasi jam'larga bevosita bog`liq bo`lgan va ular tarkibidan ajratib olingan lادلarning maxsus uyushmasidan iboratdir.

O`n ikki maqomning Markaziy Osiyo, Xuroson, Ozarbayjon xalqlari musiqasida eng taraqqiy etgan davri, taxminan XIII-XVII asrlarga to`g`ri keladi. Shu xalqlar musiqa nazariyasiga oid yozma manbaalar fikrimizning dalili bo`lib xizmat etadi. O`n ikki maqomning tarixiy taraqqiyot yo`li, uning shakllanish jarayoni masalasi yuzasidan biror aniq fikr aytish qiyin.

Chunki u davrlarda maqomlarni keng ko`lamda yozish mumkin bo`lgan hozirgi ma`nodagi nota yozuvi bo`lmaganligi bizni o`tmish musiqamizning jonli misollarini aniq tasavvur etishga imkon bermaydi. Ular turli shakllarda va miqdorlarda yashab keldi. (Markaziy Osiyoda ular dastlab 10, keyinchalik 12 va 6 maqom shakllarida bo`lgan.)

O`n ikki maqom shakli, ayniqsa XIII-XV asrlardagi musiqa risolalarida aniqroq yoritilganligi, bu davrda ularning mashxur bo`lib ketganligidan xalq ommasi orasiga keng yoyilganligidan va musiqa amaliyotida muxim rol o`ynaganligidan dalolat beradi. O`n ikki maqom Markaziy Osiyo xalqlari musiqasida va Xurosonda qariyb “Shashmaqom” shakllangan davrgacha, yaxlit xolda yashab keldi.

Shuning uchun ham XV-XVIII asrlarda yaratilgan musiqaga oid nazariy risolalarda “O`n ikki maqom” masalasi asosiy o`rin egallaydi. Musiqa risolalarida

“Maqom” «parda» iborasi bilan ham ataladiki, bu tushunchalar hozirgi zamon musiqa nazariyasida ladni bildiradi. Demak, O`n ikki maqom yoki parda, o`n ikki turli lad va ularga mos keluvchi musiqa asarlari majmuasidir.

Musiqa risolalarida mualliflar dastlab O`n ikki maqomlar nomini sanab ko`rsatganlar.

Ular:

1. Ushshoq

7. Raqoviy

2. Navo

8. Zangula

3. Buslik

9. Iroq

4. Rost

10. Isfahon

5. Husayniy

11. Zirafkand

6. Hijoz

12. Buzruk maqomalardir

1. Maqomi ushshoq. “Ushshoq” arabcha bo`lib, oshiq so`zining ko`pligidir, ya'ni “oshiqlar” demakdir. Bu maqomga kirgan kuy va ashulalar lirik (ishqiy) she'rlar bilan ijro etiladigan hamda oshiqlar tilidan aytiladigan asarlar bo`lgani uchun unga “Ushshoq” deb nom berilgan bo`lishi kerak.

2. Maqomi Navo. Navo so`zi ohang, mungli kuy ma'nolarida keladi, ya'ni navo chekish demakdir.

3. Maqomi Buslik. Musiqaga oid risolalarda ko`rsatilishicha Buslik so`zi atoqli at-Abu Salikdan olingan.

4. Maqomi Rost. Rost so`zi o`zbek, tojiklarda rost, ya'ni mos keladigan ma'noda ishlatiladi.

5. Maqomi Husayniy. Husayniy so`zi ma'lum shaxsning ismi bo`lishi kerak.

6. Maqomi Hijoziy. Xijoz Arabistonda Makka va Madina hamda ular atrofidagi past tekislikka ishora etilgan maqomdir.

7. Maqomi Raxoviy. Kavkabiylar (XVI-asr)ning risolalarida ko`rsatilishicha, bu Rum shaharlaridan birining nomi bo`lgan.

8. Maqomi Zangula. Zangula so`zi tuya bo`yniga ilinadigan yoki do`mbiraga bog`lanadigan qo`ng`iroq (zang) ma'nosida keladi.

9. Maqomi Iroq. Iroq iborasi hammaga ma'lum mamlakatning nomiga nisbat berilgan maqom nomidir.

10. Maqomi Isfag`on. Isfag`on Eronning mashhur shaharlaridan biri.

11. Maqomi Zirafkand. Zirafkand pastga sakrash, tushish va to`shakka yotish payti ma'nolarida keladi.

12. Maqomi Buzurg. (Buzruk) katta, ulug` ma'nolarida kelib, ulug` maqom demakdir. Hatto "Shashmaqomdagi" shaklida ham u juda ko`p kuy va ashulalarni o`z ichiga olgan.

"O`n ikki maqom" yo`li tartibida, ular asosida ishlangan "Ovoz" nomi bilan mashhur bo`lgan olti turli lad uyushmalari mavjud.

Ovozlar 6 ta bo`lib; Navro`z, Salmak, Gardoniya, Gavasht, Moya, va Shahnoz.

Navro`z. Ovozi Navro`z eski kalendarlarda yangi yilning birinchi kuniga nisbat berilgandir. U Husayniy maqomi lad tovushqatorigi mos keladi.

Salmak. Uning lug`aviy ma'nosi manbalarda berilmaydi.

Gardoniya. "Aylanuvchi aylanma yo`lli" ma'nosida keladi. U Gardun iborasi bilan ham atalib, Shashmaqom cholg`u yo`llarida uchraydi.

Gavasht. Jam'lar tarkibi 76 doirani tashkil etadi.

Moya. Bu ovoz ham to`rt ham besh pog`onali bo`lishi mumkin.

Shahnoz. Bu 3 pogʻonali boʻlib, uning lad tovushqatori ud pardalarida koʻrsatilgan.

Saraxbor. Xar bir maqomning ashula boʻlimi “Saraxbor” deb ataladigan shoʻbalar bilan boshlanadi.

“Saraxbor” ikki soʻzdan iborat, “sar” tojikcha “bosh”, boshlanish, “axbor” arabcha “Xabar” soʻzini, yaʼni “Saraxbor” - axborot beruvchi bosh kuy, ashula, maqomlar ashula boʻlimining asosiy bosh mavzuidir. Ular “Shashmaqomda” turli maqomlar nomi bilan qoʻshilib Saraxbori Buzruk, Saraxbori Rost, Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Segoh, Saraxbori Iroq deb nomlanadi. Saraxborlarning takt-ritm oʻlchovi 2/4(ikki chorak) boʻlib, doyra usuli ikki xil ijro etiladi:

Buzruk, Rost, Navo va Dugoh maqomlarining Saraxborlari shu doyra usullarining birinchi turi, Segoh va Iroq maqomining Saraxborlari ikkinchi turi joʻrligida ijro etiladi. Saraxborlarning doyra usullari sodda. Shu sababli murakkab boʻlishiga haramay tinglovchi ularni tez oʻzlashtirib oladi. Saraxborlarga oʻqiladigan gʻazallar quyidagi sheʼr vaznlariga toʻgʻri keladi.

Muzorei musammani axbori makfufi maqsuld

Mafuvlu foilotu mafoyilu foilun.

- - V<sup>1</sup> - V - V<sup>1</sup> V - - - V<sup>1</sup> - V -

Saraxborlarni ijro etishda maqomchi-hofizlar oʻz isteʼdodlariga qarab boshqacha vaznlardagi sheʼrlardan ham foydalanganlar.

Saraxborlar ogʻir va vazmin doyra usulida ijro etilardi. Shuning uchun ham ularni ijro etuvchi hofizning ovoz diapazoni keng, nafasi uzun hamda charchab qolmaydigan boʻlishi kerak edi. Bundan tashqari Saraxborlarga xos murakkab va nozik ashula yoʻllarini va ularning mazmunini tinglovchiga etkazish uchun hofizda yuksak mahorat, tajriba boʻlishi shart, shu bilan birga, tinglovchi ham musiqa eshitish boʻyicha malaka hosil qilgan boʻlishi kerak.

Maʼlum darajada eshitish qobiliyatiga ega boʻlmagan shinavandaga musiqa asarlari yetib bormaydi, albatta. Agar maqomlarning ijrosida yoki tinglashda shu omillar etishmasa, eshituvchida Saraxborlar haqida notoʻgʻri tushuncha tugʻilishi mumkin.

Saraxbor jumalari maqom ashula qismlarining bosh mavzui sifatida boshqa sho`balar tarkibida ham variatsiyalar sifatida uchrab turadi va maqomlarning ashula yo`llarida juda katta o`rin tutadi.

Saraxborlar tarkibiy jihatdan ko`rinishida juda murakkabdir. Ularda “Shashmaqom”dagi boshqa sho`balar singari bir nechta namudlar uchraydi.

Namud tojikcha “ko`rinish”, “kelish” ma`nosida bo`lib, maqom sho`balaridan olingan muayyan kuy yoki ashulaning ma`lum parchasini boshqa kuy yoki ashulalar tarkibida namoyon bo`lishi yoki ishlatilishidir. Namudlar ayrim sho`balarning boshlanish qismidagi kuy jumlaridan olinadi va boshqa sho`balarda avj sifatida foydalaniladi.

Namudlar tartibi:

Namudi Ushshoq

Namudi Uzzol

Namudi Oraz

Namudi Muxayyari Chorgoh

Namudi Segoh

Namudi Navo

Zebo pari

Namudi Bayot

Avji Turk

Jumladan, Saraxbori Buzrukda Namudi Uzzol va Namudi Muxayyari Chorgoh; Saraxbori Rostda Namudi Segoh, Namudi Uzzol, Namudi Muxayyari Chorgoh; Saraxbori Navoda Namudi Oraz; Namudi Navo; Saraxbori Dugohda Zebo pari va Namudi Muxayyari Chorgoh; Saraxbori Segohda, Namudi Oraz, Saraxbori Iroqda Zebo pari va Namudi Muxayyari Chorgox uchraydi.

### **3.Yunus Rajabiy ijodi**

O'zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, sozanda, hofiz va bastakor, akademik Yunus Rajabiy ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida teran va yorqin iz qoldirdi. U zamonaviy musiqa madaniyatimiz ravnaqiga, shuningdek, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasiga tamal toshini qo'ygan san'atkorlardan biridir.

Uning mumtoz qo'shiq va ashulalari, raqs kuylari, musiqali dramalari, ayniqsa, o'zbek xalq musiqa merosi namunalarini, xususan maqomlarni zamonaviy notaga va audio tasmlarga yozishdagi xizmatlari beqiyosdir.

Yunus Rajabiy o'zining hayoti va musiqa san'atiga kirib kelishini «O'zbekiston san'ati» jurnalining 1987 y. 3 - sonida bosilgan «O'zim va hamkasblarim haqida» esdalik maqolasida shunday ta'riflagan: «Men 1897 yilning 5 yanvarida Toshkent shahrida oddiy bog'bon, qassob oilasida dunyoga keldim. Otam Rajab Sarimsoqov qassob kasbiga yarasha serzavq, dovyurak odam edi. Otamni Beshyog'och dahasida tanimaydigan kishi bo'lmagan. Onam Oysha Imomova uy bekasi edilar. 1950 yili yorug' dunyodan ko'z yumdilar. Oilamizda mendan tashqari yana uch o'g'il va ikki qiz bor edi. Otam musiqa san'atning muxlisi edi. 1904 yili bo'lsa kerak, mahallamizda andijonlik Mirza Qosim hofiz yashardi. Uning va boshqa sozandalarning san'atlarini mijja qoqmay tinglar edim. Ularga muqallid bo'lib, ko'pgina narsalarni o'rgandim. Shunday qilib, bolalikdanok xonanda - yu sozandalar davrasida o'sdim. Shu tariqa menda san'atga moyillik uyg'ondi. Biror soz bo'lsa chalsam, deb umid qilardim. Lekin sozim yo'q edi. Kunlarning birida taxtaga ot yolini tarang tortib, bir asbob yasab oldim. Uni chertib yurdim. Buni ko'rgan akam menga kichkina do'mbira keltirib berdi. Do'mbirani ertadan kechgacha cherta berdim. Buni ko'rgan Shukur akam bozordan bir dutor keltirib berdi. Mirzaqosim Hofizdan va boshqa sozandalardan eshitgan kuylarni mana shu dutorda mashq qila boshladim. Shu paytlarda akam Risqi Rajabiy yaxshigina tanburchi edi. Dutorim bilan pinjiga kirib olib, unga jo'r bo'ladigan bo'ldim. Mashhur hofiz Mulla To'ychi Toshmuhamedov bilan ulkan

san'atkor Shorahim Shoumarovlar bog' qo'shnimiz bo'lib, ular haftada ikki - uch marta choyxonada hofizlik qilishardi. Shu yig'inlarda ulardan maqom hamda xalq ashulalarini o'rgana boshladim.

Bu orada 7 yoshimdan eski maktabda o'qidim. 1910 yilda uni tugatib, madrasada uch yil tahsil ko'rdim. Bu erda o'zbek she'riyati durdonalari bilan ko'proq tanishishga harakat qildim. Otam keksayib qolgan, ro'zg'orimiz tang. Yoshim 13 - 14 larda, ota kasbimning etagidan tutib, qushxonaga bordim, shu kasbda 1917 yilgacha ishladim. Lekin, musiqa mashqlarimni to'xtatmadim. Toshkentning Shayhontohur, Ko'mirsaroy va boshqa erlarida xalq sayillari bo'lib turardi. Kuz paytlari esa har juma Zangiota va Tirsakda o'tkaziladigan sayillar ham gavjum bo'lardi. Bu xalq yig'inlariga toshkentlik san'atkorlar bilan bir qatorda Samarakand, Buxoro, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Qo'qon va boshqa shaharlardan taniqli ashulachi, cholg'uchi, askiyachi, dorboz, masxaraboz, raqoslar qatnashardi. Ana shunday yig'inlarda xalqdan ko'p narsa o'rgandim. Keyinchalik «O'zbek xalq musiqasi» to'plam kitobimga ko'pgina xalq qo'shiqlari, cholg'u kuylarini kiritganman.

1913 yili otam vafot etgach, oilamiz moddiy tomondan qiynalganligi sababli 1914 - 1915 yillarda Chimkent qushxonasida ishladim. Bu erda mashhur san'atkorlar Sultonxon, Qurbonxon, Imomxon, Hoshimxon Hakimovlar bilan tanishdim. Bu aka - ukalar orasida Ilhomxon nay chalar edi. Undan nay chalishni o'rgana boshladim. Kunlarning birida choyxonada nay chalib o'tirgan edim, mashhur Abduqodir naychi ko'rib qoldilar. Tanishib qoldik. Ko'p o'tmay u kishi menga Farg'onadan g'orov nay keltirib berdilar. Shu bilan birga nafas olish, puflash, tovush chiqarish, kuylarni mahorat bilan chalish sirlarini o'rgatdilar. Ustozlarimning repertuarlarini mukammal o'rganib, etuk sozanda va xonanda bo'lib, 1916 yilda Chimkentdan qaytdim. Shu yili mashhur musiqachi va ashulachi Shorahim Shoumarovga shogird tushib, u kishidan ta'lim oldim. Ustozim shu yili akam tanburchi Risqi va men naychi - dutorchi, xonanda Rajabiylar, kamonchi Imomjon Ikromov, doirachi Shojalilovlardan iborat ansambl tuzib, repertuarimizni boyitib xalq davrasiga chiqadigan bo'ldik. Bizning guruhimizni to'y - tomosha,

gap, xilma - xil ma'rakalarga chaqiradigan bo'lishdi va hurmat - e'tiborimiz ko'tarilib ketdi. 1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushi xalqimiz boshiga ko'p mushkulliklar keltirishiga qaramasdan, biz san'atkorlarni avaylab, e'zozlashardi. 1918 yili Toshkentda «Turkiston xalq konservatoriyasi» tashkil topdi. 1919 yili esa kompozitor V.Uspenskiyning tashabbusi bilan Baland masjid, Rohat bog'ida mazkur konservatoriyaning bo'limi ochildi. Bu bo'lim musiqa texnikumi deb ham atalar edi. Bu o'quv yurtiga menga o'xshagan yoshlarni qabul qilishdi. Bizga hofiz Shorahim Shoumarov, tanburchi Shobarot aka, doirachi Shojalil aka, doirachi Abdusoat Vahobov, changchi Ismat aka, g'ijjakchi Qurbonxon Hakimov, naychi Imomjon Hakimovlar ustoz - domlalik qilishar edi. V. I. Uspenskiy esa nota yozuvi va musiqa nazariyasidan, Saodatxonim Enekeeva pianino chalishdan dars berishar edilar. Shu davrda Uspenskiy ustozlarimizdan o'zbek musiqasi bilan tanishishga va uni yozib borishga kirishdi. U Shoumarov bilan birinchi yil birga ishladi va buning natijasida chormaqomdan anchagina qismini notaga yozib oldi.

1922 yili ulug' shoir Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni asosida (shoir Sh.Xurshid p'esasi) yaratilgan musiqali drama, avval «Namuna» maktab sahnasida, keyin o'zbek davlat teatrida o'ynaldi. Bu spektakldagi klassik xalq musiqasining asosiy kuylarini Shorahim Shoumarov bilan men ishlagan edim. 1923 yili o'qishni bitirdim va akam Risqi Rajabiy, g'ijjakchi Imomjon Ikromov, changchi Ismat akaga musiqa maktabiga muallim bo'lib bordik. 1924 yilning avgustida toshkentlik mashhur hofiz Mulla To'ychi bilan g'ijjakchi Solixon hoji Samarqandga kelishdi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov bilan uchrashishdi. Buxoroda Buxoro Shashmaqomini mukammal biluvchi mashhur hofiz Ota Jalol Nosirov, tanburchi Ota G'iyos Abdug'aniev hamda Usta Shodi Azizovlar bilan tanishdim. Hoji Abdulaziz boboni, Registon yaqinidagi hovlisida men Risqi akam, Imomjon bilan to'rt yil turdik, soz chaldik, ashula - qo'shiq aytdik. Hoji boboning ashula yo'llarini o'rgandik. Hoji bobodan, Levicha Boboxonovdan, Buxoroda eshitganimizdan tashqari, Buxoro «Shashmaqomi» ni shu erda tushunib va o'rgana boshladik. Bir so'z bilan aytganda ularga shogird tushdik. Ustozlar rahbarligida chala bilgan asarlarni ko'p marotaba qaytarardik, me'yoriga etguncha mashq



qildirar edilar. Shunday qilib, biz ulardan «Buzruk», «Iroq», uning tasniflari, qashqarchalari, «Ushshoq» va uning bir necha turlarini, «Guluzorim», «Beboqcha», «Bozurgoniy», «Gullar bog'ida» va Shashmaqomning ko'p bo'lim, qismlarini o'rgandik.

1925 - 1926 yillarda Samarqand musiqali drama teatrida musiqa rahbari bo'lib ishladim. «Abdulfayzxon», «Yorqinoy», «Padarkush» kabi dramalar qo'yildi, ularga musiqa bastaladim. Shu orada «Farhod va Shirin» ham Samarqandda qo'yiladigan bo'lib qoldi, musiqasini qayta ishlab berdim. 1926 yilda «Layli va Majnun» (Sh.Xurshid p'esasi) musiqali dramasiga musiqa bastaladim.

1926 yili umr yo'ldoshimning vafoti sababli Toshkentga qaytib keldim. Toshkent radiouzelida radiostantsiya 1927 yili tuzildi. Biz har kuni shu erda yarim soatdan kontsert berib turdik. Keyinroq shu erda 12 kishilik ansambl tashkil topdi. Ansambl tarkibi borgan sari kengayib boraverdi. Mashhur san'atkorlardan Shorahim Shoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Domla Halim Ibodov, Imomjon Ikromov, Hoji Abdurahmon Umarov, Safo Mug'anniy, Matyusuf Xarratov (Chokariy), Anvar Rajabiy, Nazira Ahmedova, Maryam Alishaevalar ansamblimizning dastlabki yillaridagi a'zolari edi. 1935 yillarga borib ansamblimiz soni 40 taga etdi va men ularga bevosita rahbarlik qildim. 1934 yili uch oy Moskvadagi malaka oshirish kursida, so'ngra Toshkent konservatoriyasining tayyorlov kursida Imomjon Ikromov bilan birgalikda saboq oldik.

1937 yilda Moskvada o'tadigan birinchi O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasiga tayyorgarlik boshlandi. Dekadaga atab «Yolg'iz» (katta ashula), «Endi sendek» va «Hammamiz» kuylari asosida uch qismdan iborat syuita yaratdim va ijro etildi. Oltin soat bilan mukofotlandim. 1938 yili Bastakorlar uyushmasi tashkil topdi. Men esa a'zolika qabul qilindim. Bu tashkilot bastakor va musiqashunoslar hamda mening taqdirimda va respublikamiz musiqiy madaniyatini rivojlantirishda beqiyos rol o'ynab kelmoqda.

1939 yilda O'zbekistonda o'ttiz ijrochidan iborat birinchi xotin - qiz dutorchilar ansambli tuzish hukumat tomonidan mening zimmamga va Lutfixonim Sarimsoqovaga topshirildi. 1939 yilda hayotimda shu unutilmas voqea sodir bo'ldi.

Hukumatimiz ko'p yillik mehnatimni munosib taqdirlab, menga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» degan faxriy unvon berdi va «Shavkatli mehnat uchun» medali bilan taqdirlandim.

Bilimimni oshirish uchun 1941 yil boshida Moskvaga malaka oshirish kursiga Imomjon Ikromov, Muhammadaziz Niyozovlar bilan bordik. Professor G. I. Litinskiy, V. Vinogradov, san'atshunoslik fanlari doktori V. A. Sukerman, professor V. M. Belyaevlardan ta'lim ola boshladik. Favqulodda boshlangan Ikkinchi Jahon urushi o'qishni davom ettirishimga to'siqlik qildi. Toshkentga qaytib Yangiyo'l shahridagi Toshkent viloyati musiqali drama va komediya teatrida musiqa rahbari bo'lib ishlay boshladim.

1945 yili 9 mayda urush bizning g'alabamiz bilan tugagandan so'ng, hokimiyat rahbarlari meni yana Radio ansambliga rahbar qilib tayinlashdi. 1948 yili musiqa san'ati tarixida anchagina jiddiy g'oyaviy tortishuvlar ro'y berdi. Ya'ni xalqimizning asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan, milliy g'oyalar bilan sug'orilgan Shashmaqom, Farg'ona - Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari «Saroy musiqasi» deb, ijro etilishlari taqiqlab qo'yildi. 1953 yilda esa radioning O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrini tarqatib yubordilar. O'zbekiston radio musiqasi eshittirish tahririyati faoliyati besh yilga yaqin radio karnaylaridan eshittirishlar va kontsertlarda O'zbekiston Markaziy Komitetining ko'rsatmasiga asosan dasturlar tuziladigan bo'ldi. Yaratganga ming shukur. 1956 yildan boshlab ma'naviyatimizda bir oz bo'lsada erkinlik paydo bo'la boshlandi. 1957 yili radioda O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrini qaytadan tiklash uchun topshiriq bo'ldi. Men orkestrga badiiy rahbar, Doni Zokirov bosh dirijyor qilib tayinlandi. 1958 yildan esa maqomchilar ansambli mening rahbarligimda ishlay boshladi.

Xalq musiqasi merosining durdonalarini ko'pdan buyon to'plab notaga yozib olayotgan edim. 1947 yildan e'tiboran qayta sayqal berib, notaga tushira boshladim. 1955 yilda «O'zbek xalq musiqasi»ning birinchi tomi san'atsevar xalqimiz qo'lga borib etdi. Bora bora, kelgusi 1957 - 1959 yillarda musiqashunos I. Akbarov tahririda yana to'rt jildi nashr etildi.

Keyingi 60 - 70 yillarda Shashmaqomning olti tomligi, har bir olti maqom alohida - alohida musiqashunos F. Karomatov tahririda nashr etildi. O'zbekiston radio eshittirish va televidenie Davlat komiteti qoshidagi maqom ansambli ijrosida Shashmaqomning ashula bo'limiga kirgan barcha sho''balarini shogirdlarimga o'rgatib, ular ijrosida magnit lentalariga, plastinkalarga ko'chirishga muvaffaq bo'ldim. Bu murakab ishni amalga oshirishda maqom ansamblining zahmatkashlari: ansamblning musiqa rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Faxriddin Sodiqov, O'zbekiston xalq artistlari Kommuna Ismoilova, Berta Dovidova, O'zbekiston xalq hofizlari Ortiqxo'ja Imomxo'jaev, Orif Alimaxsumov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Karim Mo'minov, sozandalardan Orif Qosimov, Zokirjon Sodiqov, Ishoq Qodirov, Ilhom To'raev, Turg'un Alimatov, Umarjon Otaev, Dadaxo'ja Sottixo'jaev hamda G'aybulla Sa'dullaevlar men bilan yonma - yon turib hormay - tolmay mehnat qilishdi».

1920 - 1940 yillarda Yu.Rajabiy har xil mavzularda, klassik va zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rlariga ashula, qo'shiqlar, marsh, xor qo'shig'i, kuylar yaratishdan boshlab uning «Fabrika yallasi» (K. Hoshimov so'zi), «Davron - davron» (G'ayratiy so'zi), xor: «Yashnadi» (M. G'ani so'zi), «Sirdaryo» (A. Kamtar so'zi), «Hammamiz» (Jipak so'zi), «G'alaba» (Mirtemir so'zi), «O'zbekiston» (A. Kamtar so'zi), «Kaxramon» (G'ayratiy so'zi), «Paxta» (A. Qodirov so'zi), «Vatan» (A. Muhammadxon so'zi), kabi juda ko'p qo'shiqlarlari radio to'lqinlarida yangrab tez orada ommalashib ketdi. Bular qatorida «Gulbog'lar», «Mirzacho'lda to'y», «Qahramonlar marshi», «Xalqlar do'stligi» kabi ommaviy qo'shiqlar o'zbek xalq qo'shiqlarining tuzilishiga yaqin bo'lsada, ular ohang jihatidan originalligi bilan ajralib turadi. Shular qatori bastakor yaratgan «Sog'inganman», «Yor keldi», «Kelding», «Muncha ham», «Koshki», «Judo», «Ishq», «Mustazod», «Hajringda», «Gul sochar», «Ra'nolanmasun» kabi qator lirik ashulalari xonandalar tomonidan sevilib ijro etilib kelmoqda.

Yu. Rajabiy ijodida teatr uchun musiqa bastalash muhim o'rin tutdi. U Samarqand teatrida ishlagan paytlarida yuqorida qayd qilingan sahna asarlardan tashqari, 1932 yili Umarjon Ismoilov bilan hamkorlikda 1934 yili «Rustam» nomli

musiqali dramani yaratib, keyinchalik yana quyidagi sahna asarlarga musiqa bastaladi: 1934 y. «Avaz» (A. Hidoyatov p'esasi), 1941 y. «Qasos» (A. Umariy va Tuyg'un p'esalari, musiqasini yozishda B. Nadejdin hamkorlik qilgan). Kompozitor N. Mironov bilan birgalikda 1942 yili «Qo'chqor Turdiev» (S. Abdullo va R. G'ulomov p'esalari), 1943 yili «Nodira» (L. Qosimov p'esasi), G. Mushel hamkorligida 1944 yili «Muqanna» (H. Olimjon p'esasi) va 1944 yili «Farhod va Shirin» (K. Yashin p'esasi), 1968 yili kompozitor Sayfi Jalil bilan hamkorlikda «Alisher Navoiy Astrobodda» (I. Maqsumov p'esasi), 1964 yili S. Yudakov va B. Zeydmanlar bilan hamkorlikda «O'g'il uylantirish» (H. G'ulom p'esasi) musiqali dramalarini yaratdi. Shu bilan birga quyidagi drama spektakllariga musiqa bastaladi: 1938 yili «Boy ila xizmatchi», 1939 yili «Xolisxon» (Hamza asarlari) va quyidagi radiopostanovkalarga ham musiqa bastaladi: 1935 yili «Navoiy», 1936 yili «Muqimiy», 1938 yili «Furqat» va 1938 yili «Lola».

1957 yili O'zbekiston xalq artisti, kompozitor Tolibjon Sodiqov, Boris Zeydman hamkorligida yaratilayotgan «Zaynab va Omon» (Zulfiya librettosi asosida) operasi, T. Sodiqovning bevaqt vafot etganligi sababli operani Yu. Rajabiy, D. Zokirov va B. Zeydmanlar bilan 1958 yili oxirigacha etkazildi va o'sha yili asar A. Navoiy nomidagi opera va balet katta akademik teatrida sahna yuzini ko'rdi.

Yu. Rajabiy musiqaning boshqa janrlarida ham qator asarlar yaratdi. Masalan: B. Nadejdin bilan «Paxta» nomli simfonik orkestr uchun raqs syuitasi, «Farg'onacha» syuitasi va «Segoh» simfonik p'esasi, o'zbek xalq cholg'ulari ansambli uchun «Raqs», shoir Furqatning she'riga bastalagan «Naylagayman», «Tong nasimi» va «Yuzing oydek» nomli uch qismli vokal - simfonik syuita va o'zbek cholg'ulari ansambliga bir talay kuylar bastaladi.

Yunus Rajabiy O'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishda ulkan xizmatlari uchun qator orden va bir necha medallar bilan taqdirlangan. 1939 yili unga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», 1953 yili «O'zbekiston

xalq artisti» faxriy unvonlari berilgan. 1966 yili O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a'zo etib saylangan.

Ustoz san'atkor Yunus Rajabiy O'zbekiston musiqa madaniyatiga, xalqiga bir umr sidqi dildan halol xizmat qilib, tirikligidayok o'ziga haykal qo'ygan mumtoz san'atkordir. Jizzax viloyat musiqali drama teatri, Toshkent pedagogika kolleji, Toshkent metrosi bekati, Toshkentning ko'chalaridan biri va o'zi asos solgan O'zbekiston radiosi «Maqom ansambli» uning nomi bilan ataladi. Yunus Rajabiy uy - muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda.

## **Xulosa**

Yaxshi qo'shiq kishi ko'nglini yayratadi, tasalli va umid baxsh etadi, hayotga muhabbat uyotadi. Yaxshi qo'shiq kamida uch yaxshidan tarkib topadi.

Yaxshi she'r, yaxshi kuy va yaxshi ijro. Xalqimiz asrlardan beri sevib tinglab qiladigan Lutfiy, Navoiy, Bobur, Furqat va boshqa ko'pgina mumtoz shiorlarimizning azallari bilan aytiladigan qo'shiqlarda mazkur uch sifat uzviy bolangan. Shuning uchun ham ular umribaqiydir. Ular millatimizning bebaho xazinasidir. Har bir xalqning o'z tarixi, eotiqodi va mentaliteti mavjud. Shu bois sanoati ham o'ziga xos bo'lmish tabiiy. Ayniqsa har bir millatning o'z musiqa sanoati borki quloimizga chalinish bilan qaysi xalqqa mansub ekanligini darxon anglaymiz, xis qilamiz. Milliy navolarda bir-birini takrorlaydigan nozik nolalar borki beixtiyor xayratga tushamiz. O'zbek xalqining ham betakror sanoati o'lmas navolari turfa xildir. Xalqimizning shodligi, am olamlari ham asrlar davomida musiqamizda, qo'shiqlarimizda aks etib kelyapti. Ulu mutafakkir, jahon progressiv madaniyati va adabiyotning nuroniy siymosi bo'lmish Alisher Navoiy bobomizning «Sarvi gulru kelmadi», «Istadim», «Qoshli», «Qaro ko'zum» azallari bilan kuylanadigan qo'shinlarimizni olib tahlil qilib ko'rsak, ularning nasriy bayoni, oyaviy mazmuni, musiqiyligi, ohang tuzilmalarida o'zbek klassik musiqasiga qoidalar: daromad, avj, chuqur avj, har bir unli tovushlarda talqin qilinadigan murakkab, yoqimli qochirimlar so'zlarimiz isbotidir.

Milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ochayotgan bir davrda mafkuramizning rivojlantirishda xalqimizning umrboqiy sanoat tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o'rganish va sanoatsevar xalqimizga etkazish muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa bu borada ustozdan – shogirdga o'tib kelgan xalq anoanaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlarida murojaat qilish bilan birga bobokalon sanoatkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o'rganib bormoimiz lozim.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik sanoatining rivojlanishi qadim zamonlarga bolanib ketadi. Buyuk sharq allomalari, Abu ali ibn Sino, Muhammad Al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Paxlavon Mahmud, Umar Xayyom, mirzo Ulubek, Bobur, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulu bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik sanoati, musiqa ilmi va tarixi cholu sozlarining tuzilishi, ijrooviy uslublari, sanoatkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni o'zlarining fikr va muloxazalarini bayon etib ketganlar.

Agar barchamiz bir bo'lib milliy musiqamiz bo'lmish maqomni tinglab eshitish madaniyatini yosh avlodga singdirara olsak, oldimizda turgan eng katta vazifalardan birini bajagan bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1992
2. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori.-T. Sharq, 1997
3. Karimov I.A.O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.O'zbekiston, 1998
4. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch – Tosh. O'zbekiston  
2008
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard  
maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000
6. T.YE.Solomonova. O`zbek musiqasi tarixi T.1991
7. I.Rajabov Maqomlar masalasiga doir T.1993
8. O.Matyaqubov Og`zaki an`anadagi professional musiqaga kirish T.1993
9. O.Matyaqubov Maqomot T.2004
- 10.N.Shadmonov Risola-yi musiqiy T.1997

### **Elektron – ta'lim resurslar**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedaqoq.uz](http://www.pedaqoq.uz)
3. [www.Zionet.uz](http://www.Zionet.uz)
4. *tdpu – INTERNET. Ped*



ILOVALAR



**Yunus Rajabiy (1897-1976)**

# Тановор

Халқ мусикаси  
Б.Давидова ижросидан  
нотага олинган

Эн - ди сен - дек - - - - - к жа -  
но - - - - на  
Жа - но - ё - рей кай - - да - ду -  
ро - - - дў - ст ё - - - ра -  
Кў - ribs гул - ю - зи - нг - ни бо - ғда ба -  
н - да ду - ро - - - ой а - жа - б ё -  
ра Сақ - лай иш - кинг  
То - - - - кай

- - во - йа - -  
 Жо - - н - лар во - йа ба - н -  
 - да - дур - ро - - - дў -  
 - ст ё - - - - ра  
 ў - зинг о - шно ди - линг бе - го - на -  
 - ла - р - га (ё) дў - ст ё -  
 - ра - - -  
 - - -  
 - - -

# Муножот

И.Икромов мусикаси  
Б.Давидова ижроси

Ха - - - - - ха - й

ха - й ха - й во - йа - - -

Ке - ча кел - гум -  
лаҳ - за лаҳ - за -

дур де - б(он) - - - о - н Ул сар - ви - гул  
чик - ди - му - - - у Чик - дим йў - ли - -




-рў кел - ма - ди (е) - - - Кўз - ла - рим -  
-да кел - ма - ди (е) - - - Кел - ди жон


- га ке - ча тоғ - - - от - гун - ча уй -  
оғ - зим - га - ю - - - ул - шў - хи - бад

- ку кел - ма - ди (е) - - - ха - - -  
ху кел - ма - ди (е) - - -

2. 1.  
- ха - - - - ха - - - ха -

кур - бо - нинг - ман (е) - - - е





## **MUNDARIJA**

|                                         |              |
|-----------------------------------------|--------------|
| <b>Kirish.....</b>                      | <b>3-5</b>   |
| <b>Asosiy qism.....</b>                 | <b>6</b>     |
| <b>1. Maqom va uning iboralari.....</b> | <b>6-8</b>   |
| <b>2. O`n ikki maqom.....</b>           | <b>9-13</b>  |
| <b>3.Yunus Rajabiy ijodi.....</b>       | <b>14-21</b> |
| <b>Xulosa.....</b>                      | <b>22-23</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>   | <b>24</b>    |
| <b>Ilova.....</b>                       | <b>25-31</b> |